



UDK: 159.9(575.1)

Nazokat SHERMATOVA,  
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o‘qituvchisi, mayor  
E-mail: shermatovanazokat598@gmail.com

P.f.d., professor T.Burxonov taqrizi bilan

### KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI VA JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Unda kasbiy tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, psixologik, kommunikativ hamda shaxsiy jihatlari ilmiy-nazariy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, kursantlarning kasbiy rivojlanishida motivatsiya, bilim va tafakkur jarayonlari, psixologik barqarorlik, muloqot madaniyati hamda individual xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy tayyorgarlik, kursant, ijtimoiy-psixologik jihatlari, motivatsiya, kognitiv rivojlanish, psixologik barqarorlik.

### PSYCHOLOGICAL BASIS AND ASPECTS OF PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the socio-psychological aspects of the formation of professional training of cadets in higher military educational institutions. The motivational, cognitive, psychological, communicative and personal components of professional training are revealed based on scientific theoretical approaches. The article also examines the role of motivation, intellectual development, psychological stability, communication culture and individual characteristics in the professional development of cadets.

**Keywords:** professional training, cadet, socio-psychological aspects, motivation, cognitive development, psychological stability, communication competence.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация

В данной статье анализируются социально-психологические аспекты формирования профессиональной подготовки курсантов в высших военных образовательных учреждениях. Рассматриваются мотивационные, когнитивные, психологические, коммуникативные и личностные компоненты профессиональной подготовки на основе научно-теоретических подходов. Также раскрывается роль мотивации, интеллектуального развития, психологической устойчивости, культуры общения и индивидуальных особенностей в процессе профессионального становления курсантов.

**Ключевые слова:** профессиональная подготовка, курсант, социально-психологические аспекты, мотивация, когнитивное развитие, психологическая устойчивость.

**Kirish.** Zamonaviy sharoitda davlat xavfsizligini ta'minlash, mudofaa salohiyatini mustahkamlash hamda harbiy tizimning samarali faoliyat yuritishini tashkil etishda yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlash muhim strategik vazifa hisoblanadi. Har bir davlatning mudofaa qudrati, avvalo, uning professional va har tomonlama tayyorlangan harbiy kadrlariga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda harbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, harbiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz rahbari tomonidan ham harbiy ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda zamonaviy harbiy bilim va malakalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’kidlab kelinmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ma’naviy-axloqiy fazilatlarini, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallash muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan[1]. Shu sababli oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Harbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayoni nafaqat kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik sifatlarini rivojlantirishni ham talab etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** A.N.Leontev, L.I.Bojovich, A.Maslou motivatsiyaning shaxs faoliyatidagi o‘rmini asoslab bergan. S.L.Rubinshteyn, J.Piaje, L.S.Vigotskiy kognitiv rivojlanishning faoliyat va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligini

ko‘rsatadi. G.Selye, R.Lazarus stress va psixologik barqarorlikni, D.Goleman esa emotsional intellektning ahamiyatini yoritgan. Shuningdek, K.Levin, A.V.Petrovskiy kommunikativ jihatlarni, K.K.Platonov, B.G.Ananov, G.Ayzenk shaxsning individual xususiyatlarini tadqiq etgan. Ushbu yondashuvlar kasbiy tayyorgarlikni kompleks jarayon sifatida o‘rganishga asos bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy-tahliliy hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalar asosida kasbiy tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, psixologik va kommunikativ jihatlari o‘rganildi. Shuningdek, kontent-tahlil yordamida mavjud adabiyotlar umumlashtirildi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida mutaxassisning kasbiy shakllanishi faqatgina nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, intellektual salohiyati, psixologik barqarorligi, kommunikativ qobiliyatlari va individual xususiyatlarining uyg‘un rivojlanishi bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u shaxsning faoliyatga munosabati, bilim va ko‘nikmalari, psixologik sifatleri hamda ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy tayyorgarlik bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy jihatlardan iborat bo‘lib, ular shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabati, bilim va tafakkur jarayonlari, psixologik barqarorligi, muloqot madaniyati hamda individual xususiyatlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan kasbiy tayyorgarlikning ilmiy asoslarini tahlil qilishda

uning asosiy tarkibiy jihatlarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Motivatsion jihat shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi hamda maqsadga intilishini ifodalovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. U kasbiy faoliyatni amalga oshirishga undaydigan ichki omillar, qadriyatlar, ehtiyojlar va intilishlar majmuasini qamrab oladi. Kasbiy motivatsiya shaxsning tanlagan kasbiga bo'lgan munosabati, kasbiy maqsadlarni anglash darajasi hamda xizmat faoliyatiga nisbatan mas'uliyatli yondashuvini belgilaydi. Shu jihatdan qaraganda, motivatsiya shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u insonni ma'lum bir faoliyat turiga yo'naltiradi, faoliyat jarayonida barqarorlikni ta'minlaydi hamda kasbiy rivojlanishga turtki beradi. Aynan shu sababli mutaxassisning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishi, kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib borishi va o'z faoliyatiga ogli munosabatda bo'lishi ko'p jihatdan uning ichki motivatsiyasi darajasi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Psixolog A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, inson faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi omili motiv hisoblanadi. Uning fikricha, shaxsning kasbiy shakllanishi faoliyat jarayonida shakllanadigan motivlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu motivlar insonning kasbiy faoliyati yo'nalishini belgilaydi [2]. Shu nuqtai nazardan kursantlarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish ularning xizmat vazifalariga nisbatan ogli munosabatini ta'minlaydi.

Psixolog L.L.Bojovich shaxs motivatsiyasini uning ehtiyojlari va ijtimoiy qadriyatlari tizimi bilan bog'liq holda izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, inson faolligining asosiy manbai uning ichki ehtiyojlari va maqsadlar tizimi hisoblanadi [3]. Demak, kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsda kasbga nisbatan ijobiy munosabat, mas'uliyat hissi va xizmat qadriyatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, A.Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasiga ko'ra, inson o'z ehtiyojlarini qondirish jarayonida yuqori darajadagi ehtiyojlar - o'z qobiliyatlarini namoyon qilish va o'zini rivojlantirishga intiladi [4]. Bu esa shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va uning kasbiy kamolotga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kognitiv jihat kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, intellektual qobiliyatlar hamda tafakkur jarayonlari majmuasini o'z ichiga oladi. Mazkur jihat shaxsning kasbiy bilimlarni egallash, ularni chuqur anglash, tahlil qilish va amaliy faoliyat jarayonida samarali qo'llay olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, kognitiv jihat insonning fikrlash jarayonlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish hamda kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni tizimli ravishda o'zlashtirish jarayonlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Aynan shu jihat shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib, u mutaxassisning bilimdonligi, intellektual salohiyati va kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan vaziyatlarni to'g'ri baholash hamda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini namoyon etadi. Psixolog S.L.Rubinshteyn shaxs rivojlanishini faoliyat va ong birligi tamoyili asosida izohlab, bilimlarning shakllanishi insonning faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [5]. Uning fikricha, insonning bilimi va tafakkuri amaliy faoliyat jarayonida rivojlanadi, ya'ni shaxs faoliyat davomida nafaqat yangi bilimlarni egallaydi, balki ularni anglaydi, tahlil qiladi va amaliyotda qo'llash orqali yanada boyitadi. Shu bois kasbiy faoliyat jarayonida bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish shaxsning kognitiv rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, shveysariyalik psixolog J.Piaje kognitiv rivojlanish nazariyasida inson bilimi tajriba va intellektual faoliyat orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida mavjud bilimlarini qayta tashkil etadi, ya'ni avvalgi bilimlar asosida yangi kognitiv tuzilmalar hosil qiladi va tafakkur jarayonlarini yanada rivojlantiradi [6]. Bu jarayon insonning fikrlash doirasini kengaytirib, murakkab vaziyatlarni tahlil qilish hamda ularga mos ravishda qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

Psixolog L.S. Vigotskiy esa kognitiv rivojlanishda ijtimoiy muhitning o'rni muhim ekanligini alohida ta'kidlab, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijtimoiy muloqot, hamkorlik va tajriba almashuvi orqali amalga oshirishni ko'rsatadi [7]. Uning fikricha, insonning bilim va tafakkur jarayonlari ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi hamda shaxs boshqa insonlar bilan o'zaro muloqot qilish jarayonida yangi bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Shu sababli kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'lim va amaliy faoliyatning o'zaro uyg'unligi, shuningdek, jamoaviy hamkorlik muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologik jihat shaxsning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, irodaviy sifatleri hamda psixik jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur jihat shaxsning turli murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilishi, emotsional holatini nazorat qilishi, ruhiy zo'riqishlarga bardosh berishi hamda faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda oqilona va tezkor qaror qabul qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgan kasbiy faoliyat turlarida shaxsning psixologik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday faoliyat ko'pincha kuchli emotsional bosim, xavf-xatar va yuqori darajadagi mas'uliyat bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli shaxsning psixologik barqarorligi, o'zini boshqarish qobiliyati hamda irodaviy sifatleri kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Psixolog G.Selening stress nazariyasiga ko'ra, stress inson organizmining tashqi ta'sirlarga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi hisoblanadi. U organizmning turli xil psixologik va fiziologik omillarga moslashish jarayonini ifodalaydi. Olimning ta'kidlashicha, inson murakkab va ekstremal vaziyatlarga duch kelganda organizmda himoya mexanizmlari ishga tushadi va bu jarayon moslashuv sindromi orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan insonning qiyin sharoitlarga moslasha olish darajasi ko'p jihatdan uning psixologik barqarorligi va stressga chidamlilik darajasi bilan belgilanadi [8].

Kommunikativ jihat shaxsning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, jamoada ishlash hamda hamkorlikni tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur jihat shaxsning o'z fikrini aniq va ravshan bayon eta olish, boshqalarni tushunish, o'zaro hurmat va ishonch asosida muloqot olib borish hamda jamoaviy faoliyat jarayonida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Kasbiy faoliyat jarayonida muloqot madaniyati, jamoaviy munosabatlar va o'zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ko'plab kasbiy vazifalar aynan jamoaviy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Shu bois shaxsning kommunikativ kompetensiyasi uning kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy psixologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan K.Levin guruh muhiti inson xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, shaxsning faoliyati va xulq-atvori nafaqat individual xususiyatlarga, balki u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhit va guruh munosabatlariga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Levinning fikricha, insonning xatti-harakati shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi, ya'ni guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlar shaxsning xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayoni hamda faoliyat samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi [9]. Psixolog A.V.Petrovskiy jamoaviy munosabatlar nazariyasida shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida jamoani ko'rsatadi. Uning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi jamoadagi ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali amalga oshadi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, ishonch, mas'uliyat va qo'llab-quvvatlash kabi omillar shaxsning ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [10]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoaviy faoliyat madaniyatini shakllantirish hamda samarali muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shaxsiy jihat shaxsning individual-psixologik xususiyatlari – temperament, xarakter, irodaviy sifatlar hamda shaxsiy qadriyatlar tizimini qamrab oladi. Mazkur jihat insonning

kasbiy faoliyatga bo'lgan individual yondashuvini, faoliyat jarayonida o'zini tutish uslubini hamda turli vaziyatlarga munosabat bildirish shaklini belgilaydi. Har bir inson o'zining individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va psixologik sifatlari bilan boshqalardan farq qiladi. Shu sababli kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishda shaxsning individual xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, temperamentning turi, xarakter xususiyatlari, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik va mustaqillik kabi irodaviy sifatlarga shaxsning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Psixolog K.K.Platonovning shaxs tuzilishi konsepsiyasiga ko'ra, shaxs murakkab tizim bo'lib, u to'rtta o'zaro bog'liq tarkibiy qismdan tashkil topgan: yo'nalganlik, ijtimoiy tajriba, psixik jarayonlar va biopsixologik xususiyatlar. Yo'nalganlik shaxsning ehtiyojlari, motivlari va qadriyatlarini o'z ichiga olsa, ijtimoiy tajriba insonning bilim, ko'nikma va malakalarini ifodalaydi. Psixik jarayonlar tafakkur, xotira, diqqat kabi ruhiy jarayonlarni qamrab oladi, biopsixologik xususiyatlar esa temperament, asab tizimi xususiyatlari kabi biologik omillar bilan bog'liqdir. Ushbu tuzilma shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi va uning individual rivojlanishini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [11]. Shu bilan birga, psixolog B.G.Ananev inson rivojlanishini biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanish jarayonida biologik xususiyatlar, psixik jarayonlar hamda ijtimoiy muhit ta'siri o'zaro

uyg'unlashib boradi va aynan shu omillarning o'zaro ta'siri shaxsning individual rivojlanishini belgilaydi [12]. Psixolog G.Ayzenk esa inson temperamenti va shaxsiy xususiyatlari uning xulq-atvori hamda faoliyat uslubini belgilashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. U temperamentning ekstraversiya va introversiya kabi turlari shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabati, mulqot uslubi hamda kasbiy faoliyatni bajarish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [13]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning qobiliyatlari va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kursantlarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u shaxsning motivatsion, kognitiv, psixologik, kommunikativ hamda individual xususiyatlari uyg'unligida shakllanadi. Shu bois oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularning psixologik barqarorligi, kasbiy motivatsiyasi hamda ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, jamoaviy faoliyat elementlarini keng qo'llash hamda psixologik treninglardan foydalanish kursantlarning kasbiy tayyorgarligini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2005. – 352 с.
3. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Питер, 2008. – 400 с.
4. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: HarperCollins, 1987 – 293 p.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 720 с.
6. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001 – 176 p.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 2000. – 168 p.
8. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976. – 515 p.
9. Lazarus R.S. Stress and Emotion: A New Synthesis. – New York: Springer Publishing Company, 2006. – 368 p.
10. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2005. – 384 p.
11. Lewin K. Field Theory in Social Science. – New York: Harper Torchbooks, 2006. – 388 p.
12. Платонов К.К. Структура и развитие личности. – Москва: Институт психологии РАН, 2003. – Б. 112–118.
13. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – Б. 45–52.
14. Eysenck H.J. Dimensions of Personality. – London: Routledge, 1998. – 338 p.